



USE OF PEDAGOGICAL AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN LAW CLASSES

Zulkhumor Khajiyeva

Student

Andijan State Pedagogical Institute

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Society, legal consciousness, legal culture, scientific literature, modern educational technologies, law, decree, didactic dissemination materials, presentation, lecture

Received: 20. 06. 24

Accepted: 22. 06. 24

Published: 24. 06. 24

Abstract: this article reflects on the requirements for a modern pedagogue in law classes and the use of Information Technology. It is also stated that the modern law teacher applies his theoretical skills in the organization of law classes in a new way and in the organization of extracurricular activities.

HUQUQ DARSLARIDA PEDOGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Zulxumor Hajiyeva

Talaba

Andijon davlat pedagogika instituti

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: jamiyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ilmiy adabiyot, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, qonun, farmon, didaktik tarqatma materiallar, taqdimot, ma'ruza

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquq darslarida zamonaviy pedagogga qo'yilgan talablar va axborot texnologiyalardan foydalanish to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, zamonaviy huquq o'qituvchisi huquq darslarini tashkil qilishda yangicha uslub va sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarni tashkillashtirishda borasida nazariy ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq qilish to'g'risida bayon qilingan.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ПРАВА

Зулхумор Хаджиева

Студент

Андижанский государственный педагогический институт

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: общество, правосознание, правовая культура, научная литература, современные образовательные технологии, закон, постановление, дидактические раздаточные материалы, презентация, лекция

Аннотация: В данной статье рассмотрены требования к современному педагогу на уроках права и использование информационных технологий. Также было заявлено о применении на практике теоретических навыков современного преподавателя права по новому методу организации уроков права и организации внеклассной работы.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 - yil 9- yanvarda "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora tadbirlari" to'g'risidagi qaroriga ko'ra, bugungi kunda ta'lim tizimida huquq fanini tegishli darajada tashkil qilinishi, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda, o'tkazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanishi zarurligidan kelib chiqib, huquq fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali o'qitish davr talabidir. Bugun amalga oshirilayotgan islohotlarning tag zamirida inson kapitali yotadi. Zamon shiddat bilan rivojlanib borar ekan, zamonaviy o'qituvchilarga bo'lgan talab har qachongidan ham oshib boraveradi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy o'qituvchi deganda albatta, zamonaviy axborot texnologiyalarida foydalanishni biladigan, yangilik yaratishga va o'z fani yuzasidan turli xil metodlar orqali talaba – o'quvchilarga bilim bera oladigan pedagog nazarda tutiladi. Huquq fanlarini tashkil etish va tashkillashtirish borasida hozirgi kunda talab albatta kuchli hisoblanadi. Huquq darslarida huquqiy terminlardan foydalanishdan cheklanib qolmasdan, yangicha uslub va metodlar tashkil qilish albatta o'quvchida fanga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Jamiyat taraqqiyotida o'zining huquqlar va majburiyatlarini to'liq anglagan insongina ravnaq topa oladi. Bu borada esa pedagog zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. O'quvchilarda Vatanga bo'lgan muhabbatini kuchaytirish, barkamol inson bo'lib yetishishida hamda Konstitutsiya va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashda pedagogning ahamiyati katta ro'l o'ynaydi. Hukumatimiz tomonidan odilona olib borilayotgan islohotlar zamirida albatta inson qadr-qimmati har narsadan ustun hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi", - deb keltirib o'tilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarga ushbu qonunning ahamiyatini tushuntirib berishimiz lozim. Bu borada amaliyotda qanday ishlar amalga oshirilayotganligini isboti sifatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan

holda ko'rsatib berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Pedagoglarimiz uchun Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 1-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2023-yil 29-sentabrda ma'qullangan "Pedagog ma'qomi" to'g'risidagi qonun ishlab chiqildi. Qonun pedagoglarimizning huquqlari, majburiyatlari va ular faoliyatining asosini kafolatlaydi. Ushbu qonunning 7-moddasining to'rtinchi bandida "Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi" to'g'risida fikr yuritilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda pedagog ofis dasturlaridan foydalana bilishi lozim. Bunda elektron adabiyotlardan foydalanish va video darslar tashkil qilish orqali darslarni tashkil qilish mumkin. Undan tashqari huquq darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi shakllari mavjud: - Word dasturida ishlash; hujjatli va uslubiy majmualar matnlari, testlar, testlar, didaktik tarqatma materiallar va boshqalar. - Power Point dasturida ishlash: o'qituvchilar va talabalarning multimedia taqdimotlari, ma'ruzalarni qo'llab-quvvatlash, mustaqil ishlarni tashkil etish; - Excelda ishlash: diagrammalar, jadvallar; - Internet va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish: qo'shimcha materiallar (matnlar, xaritalar, rasmlar); - nashriyotda ishlash: ma'lumotnoma va umumlashtiruvchi materiallar, sertifikatlar tayyorlash mumkin. Bu kabi darslarni tashkil qilish dars sifatini oshiradi. Huquq darslarini o'tishda sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ham o'quvchilarda eslab qolish hamda yanada ko'proq ma'lumotlarni eslab qolishga yordam beradi.

XULOSA

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim tizimi orqali inson kapitaliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olib borilayotgan islohotlardan, ijtimoiy, iqtisodiy, innovatsion, ta'lim, salomatlik va boshqa sohalardagi o'zgarish-u-yangiliklardan ko'zlangan maqsad – farovonlikni oshirish hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish bilan birga ma'lumotlarning to'g'ri va asosli ekanligiga e'tibor berish kerak. Globallashtirish davrida har xil turli oqimlarning tuzog'iga ilashib qolishni oldini olish lozim. Bunda ilg'or yoshlarimizning ta'lim va tarbiya jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Ushbu mas'uliyatli ish ham albatta pedagoglarimizning mahoratiga bog'liq. Shunday ekan, mustaqil fikrlay olish qobiliyatini yoshlarimizda shakllantirishimiz va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 09. 01. 2019 yildagi PF-5618-sonli "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora tadbirlari" to'g'risidagi <https://lex.uz/ru/docs/-4149765?ONDATE=30.11.2021>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'ZBEKISTON" nashriyoti, Toshkent -2023 9-bet
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01. 02. 2024 yildagi O'RQ-901-sonli "Pedagog maqomi" to'g'risidagi qonuni <https://lex.uz/docs/-6786401>
4. Abdullayev Elmurod. "Yangi O'zbekistonda inson kapitali" 2023-yil. Uslubiy qo'llanma 29-bet